

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 215 (1276), 2024-yil 24-oktabr, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI VA O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 23-oktabr kuni BRICS birlashmasi davlatlarining sammitida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Qozon shahriga keldi.



Aeroportda davlatimiz rahbarini Tatariston Respublikasi Raisi Rustam Minnixonov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Davlatimiz rahbari Qozon shahriga tashrif doirasida dastlab Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuvda O‘zbekiston — Hindiston strategik sheriklik munosabatlari va ko‘p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Yuqori texnologiyalar, sun‘iy intellekt, sanoat, energetika, farmatsevtika, transport kommunikatsiyalari bo‘yicha dastur va loyihalarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Joriy yilda Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi va biznes forumini o‘tkazish, shuningdek, sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha o‘rta muddatli dastur qabul qilishga kelishib olindi.

Mamlakatlarimizda Madaniyat va kino kunlarini, tibbiyot va sport sohaslarida hamda yoshlar ishtirokida, shu jumladan, yoshlarning parlament tashkilotlari doirasida qo‘shma tadbirlar o‘tkazish taklifi bildirildi.

Yetakchilar bo‘ljak oliy darajadagi tadbirlar rejasini ham muhokama qildilar.

Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an bilan uchrashuvda O‘zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish bo‘yicha dolzarb masalalar atrofida ko‘rib chiqildi.

Ikki davlat rahbarlari siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy va gumanitar sohalardagi ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish muhimligini ta‘kidladilar.

Prezidentlar faol muloqotlar va samarali almashinuvlarni davom ettirish zarurligini qayd etdilar.

Geologiya va mineral resurslarni qazib chiqarish, elektrotexnika, mashinasozlik, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va boshqa sohalarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Qo‘shma madaniy-gumanitar tadbirlarni muntazam o‘tkazib borish zarurligi ta‘kidlandi.

Yetakchilar xalqaro va mintaqaviy kun tartibining muhim jihatlari yuzasidan ham fikr almashdilar.

BRICS sammiti tadbirlari doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev birlashmaning Yangi taraqqiyot banki prezidenti Dilma Rusefni qabul qildi.

Ushbu nufuzli ko‘p tomonlama moliyaviy institut bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari muhokama qilindi.

Ta‘lim va texnologik rivojlanish sohasidagi dastur va loyihalar, ijtimoiy sohani qo‘llab-quvvatlash, sanoat, infratuzilma va logistikani modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, energetika va kommunal tarmoqlar sheriklikning istiqbolli yo‘nalishlari sifatida qayd etildi.

Hamkorlik bo‘yicha aniq loyihalarni tayyorlash uchun qo‘shma ekspertlar guruhini tuzishga kelishib olindi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Sberbank” prezidenti va boshqaruvi raisi German Grefni qabul qildi.

Uchrashuvda raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar va ta‘lim sohaslarida o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Toshkent shahrida raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali mutaxassislar va muhandislar tayyorlashga ixtisoslashgan “Maktab 21” ta‘lim muassasasining ikkinchi kampusi ish boshlaganidan mamnuniyat bildirildi.

Shuningdek, bank sektori va shahar infratuzilmasini boshqarishda samarali raqamli yechimlarni joriy etish bo‘yicha muhim qo‘shma loyihalar qayd etildi.

Kunning ikkinchi yarmida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BRICS sammitida ishtirok etayotgan delegatsiyalar rahbarlarini qutlash marosimida qatnashdi.

“Kazan Ekspo” xalqaro ko‘rgazmalar markazida davlatimiz rahbarini Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin kutib oldi.

Marosimda bir qator mamlakatlarning davlat va hukumatlari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari ham ishtirok etdi.

Tadbirdan so‘ng tantanali qabul marosimi o‘tkazildi.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev

BRICS sammiti doirasida Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpin va Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfatoh as-Sisi bilan suhbatlar o‘tkazdi.

Ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalar va oliy darajada erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi muhokama qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozon shahriga tashrifning birinchi kunida Tatariston Respublikasi Raisi Rustam Minnixonov bilan ham uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston hududlarining Tatariston bilan o‘zaro manfaatli va ko‘p qirrali hamkorligini yanada kuchaytirish masalalari muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda yetakchi korxonalarining sanoat kooperatsiyasi va faol gumanitar almashinuv o‘zining amaliy natijalarini berayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Faol muloqotlar va o‘zaro tashriflarni davom ettirish, O‘zbekiston hududida qo‘shma iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatini kengaytirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Qozon shahriga tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Tatariston Respublikasining davlat mukofoti — “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Yuksak mukofotni davlatimiz rahbariga Tatariston Raisi Rustam Minnixonov tantanali ravishda topshirdi. Prezidentimiz ushbu orden bilan O‘zbekiston va Tatariston o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, xalqlar o‘rtasida do‘stlik va o‘zaro anglashuvni mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hisssasi uchun mukofotlandi.

Mamlakatimiz yetakchisi Tatariston rahbariga mukofot uchun samimiy minnatdorlik bildirib, so‘nggi yillarda o‘zaro hamkorlikda yuqori natijalarga erishilganini mamnuniyat bilan qayd etdi hamda Tatariston xalqiga ezgu tilaklarini bildirdi.

24-oktabr kuni O‘zbekiston yetakchisi “BRICS plus” formatidagi sammitning yalpi sessiyasida nutq so‘zlaydi.

O‘ZA

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH — umumiy harakat, yagona maqsad



Yaqinda poytaxtimizda IV Aksikorrupsiya forumi bo‘lib o‘tdi. Ushbu forum keyingi to‘rt yil ichida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bahslandan amaliy harakatlar sari kuch va imkoniyatlarni birlashtirish hamda kuchaytirishga qaratilgan muhim platformaga aylandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan yo‘lga qo‘yilgan mazkur yangi format bu yil 10 ta xorijiy mamlakatning antikorrupsiya idoralari va 10 dan ziyod xalqaro tashkilotning 250 vakilini yagona maqsad — korrupsiyaga qarshi kurashishda hamkorlikni yanada kuchaytirish yo‘lida birlashtirdi. Forum sohadagi dolzarb masala va chaqiriqlarni muhokama qilish, birgalikdagi harakatlar uchun aniq

rejalarni belgilab olish, shuningdek, O‘zbekistonda zamonaviy tendensiyalar asosida kechayotgan muhim islohotlar natijalarini xalqaro hamjamiyat e‘tiboriga havola etishga xizmat qilayotgani bilan ham ahamiyatlidir.

Quyida forum ishtirokchilarining fikrlari bilan tanishasiz.

Davomi 4-beta

O‘ZBEKISTON XALQARO SAVDO UCHUN MUHIM LOGISTIKA MARKAZIGA AYLANMOQDA

Poytaxtimizda davom etayotgan xalqaro hamkorlik tashabbuslari haftaligi doirasidagi navbatdagi anjuman aholi farovonligini oshirishda barqaror investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar va istiqboldagi rejalariga bag‘ishlandi.

Olimlar, chet ellik ekspertlar, xorijiy va mahalliy kompaniyalar rahbarlarini bir davraga jamlagan tadbirda investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri o‘rinbosari Akrom Aliyev keyingi yillarda yurtimizda ochiq jamiyat, inson huquqlari ustuvor demokratik davlat

qurish yo‘lidagi islohotlar samarasida iqtisodiyotimiz yil sayin o‘sib borayotgani, mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha mintaqaviy yetakchiga aylanganini ta‘kidladi.

Davomi 2-beta

Taraddud

TEJAMKORLIK ENG MAQBUL YECHIM

Bugun energiya resurslarini tejash dolzarb masalalardan. Elektr energiyasi iste‘moliga limit belgilangani aholida tejamkorlik madaniyati shakllanishiga turtki bo‘lyapti. Bu moddiy manfaat keltirish bilan birga elektr energiyasi va tabiiy gaz behuda sarflanishining oldini oladi. Ayniqsa, kuz-qish mavsumida ushbu masalaning ahamiyati yanada ortadi.

Joriy yil 27-avgustida Prezidentimiz raisligida energiya tejamkorligini ta‘minlash, muqobil quvvatlardan foydalanishni kengaytirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor

yig‘ilishida ushbu yo‘nalishda aniq vazifalar belgilab berilgan edi.

Ushbu topshiriqlar ijrosi yuzasidan Navoiy viloyatida energiya resurslaridan samarali

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

27-OKTABR — OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI VA MAHALLIY KENGASHLAR DEPUTATLARI SAYLOVI KUNI

SAYLOV 2024 27-OKTABR

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

Mazkur maqola O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasiga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e‘lon qilinmoqda.

3-beta qarang.

foydalanish va tejash masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatining Navoiy viloyati filiali bazasida kuz-qish mavsumini betalafot o‘tkazish maqsadida tarmoq korxonalarini uchun moddiy-texnik baza yaratilmoqda.

— Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish doirasida bugungacha rejalashtirilgan 1500 kilometr havo uzatish elektr tarmoqlarini yangilash va ta‘mirlash ishlari yakuniga yetkazildi. Shuningdek, 367 ta transformator punkti va ko‘p qavatli uylardagi 7 mingdan ziyod elektr shiti mukammal ta‘mirlandi.

Davomi 4-beta





Taraqqiyot odimlari

YO'LSOZLIKDA NAMUNAVIY LOYIHALARDAN VOZ KECHILIB, HUDUDLAR XUSUSIYATI E'TIBORGA OLINMOQDA

Yurtimizda iqtisodiyotning qon tomiri bo'lgan avtomobil yo'llariga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, zamonaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, jahon talablariga javob bera oladigan yangi yo'llar qurish borasida jadal ishlar bajarilmoqda. Prezidentimizning 2023-yil 10-oktabrdagi "Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida soha boshqaruvining zamonaviy tizimini yaratish va raqamlashtirish, sifat nazoratini kuchaytirish borasidagi sa'y-harakatlar ayni muddao bo'ldi.

Binobarin, jamoatchilik nazoratida, odamlar orasida yo'llar sifatini qurilishi xususida shikoyatlar ko'p bo'lishi bejiz emas. Shu bois, yo'llarni ilg'or tayanib, zamonaviy yondashuvlar asosida barpo etishga e'tibor kuchaymoqda. Masalan, loyiha hujjatlarining namunaviy andazalaridan voz kechilib, har bir hududning geologik va ekologik xususiyatidan kelib chiqish usuliga o'tildi. 1700 ta maxsus texnika xarid qilinib, yo'l xo'jaligi korxonalarining ta'minoti mustahkamlandi. Yangi turdagi asfalt-beton, sement-beton qoplamalar yotqizish tajribasi joriy etilgan bugun o'zini to'la oqlamoqda.

"Yashil makon" dasturi doirasida yo'llar chetida ko'chatlar ekilayotgani, daraxtlarni parvarishlash uchun yo'l bo'yidagi yerlar ijaraga berilayotgani ham muhim tashabbuslardan biri bo'ldi.

Bugun bu o'zgarishlarni odamlar kundalik hayotida sezmoqda, his etmoqda. Chunki o'tgan davrda yurtimizda ko'priklar, yo'llar qurish ko'lami kengayib, sifati tobora ortib borayotir.

Prezidentimiz shu yil 16-oktabr kuni yo'l xo'jaligi sohasida qilingan ishlar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalarga oid taqdimot bilan tanishish chog'ida ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratib,

sohani rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab berdi. Yo'l qurilishiga yangicha yondashuvlarni joriy qilishga e'tibor qaratdi.

BMT tahliliga ko'ra, sifati yo'llar O'zbekiston iqtisodiyotining kamida 2 foiz o'sishiga turki beradi. Bugun xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda 729 kilometr yo'lni rekonstruksiya qilish bo'yicha 6 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Jumladan, yaqin kunlarda Qo'ng'iro't — Beynau yo'nalishidagi 240 kilometr yo'l foydalanishga topshiriladi. Shuningdek,

Guliston — Andijon, Dushanbe — Termiz, Buxoro — Turkmanboshi, Urganch — Hazorasp yo'llarining muayyan qismi qayta quriladi.

Keyingi yillarda sohaga xususiy sektor vakillari ham keng jalb qilinayotgani samara beryapti. Jumladan, hududlardagi jami 260 kilometr yo'l ekspluatatsiyasi autosoring asosida tadbirkorlarga berildi. Osiyo taraqqiyot banki loyihasi doirasida 841 kilometr yo'l qurilishida ilk bor to'liq mahalliy pudratchilar qatnashishiga kelishildi.

Taqdimotda erishilgan natijalar bilan birga sohadagi ustuvor vazifalar ham ko'rsatib o'tildi. Xususan, Andijon bilan Qo'ng'iro'tni, Termiz bilan Toshkentni

bog'laydigan jami 4 ming kilometrlilik xalqaro yo'l eng yuqori talablarga javob berishi kerakligiga urg'u berildi. Shuningdek, Toshkent — Samarqand va Toshkent — Andijon oralig'idagi pulli yo'l loyihalarini jadallashtirish, ularni qatnov darajasi yuqori bo'lgan uchashtalarda qurish zarurligi qayd etildi.

“Aholiga qulaylik yaratish, tirbandliklarning oldini olish maqsadida poytaxtimizda zamonaviy ko'priklar, yer usti metrosi, yangi yo'llar bunyod etildi. Bu esa, o'z navbatida, xalq farovonligi oshishi, vaqt va yonilg'ini tejash, yo'llarda tirbandliklarni kamayishiga xizmat qilmoqda.

Bugun 4700 ta ko'priklar ta'mirlanib holatda. Yig'ilishda bu masalaga ham alohida to'xtalib o'tildi. Jumladan, uch yillik dastur ishlab chiqib, ularni bosqichma-bosqich ta'mirlash vazifasi qo'yildi. Mazkur islohotlar kelgusida shahar infratuzilmasini yanada yaxshilab, fuqarolarga keng imkoniyat yaratadi.

Qahramon ERGASHEV,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasining
Sanoat, qurilish va savdo masalalari
qo'mitasi a'zosi

Haftalik

O'ZBEKISTON XALQARO SAVDO UCHUN MUHIM LOGISTIKA MARKAZIGA AYLANMOQDA

Boshlanishi 1-betda

“Yalpi ichki mahsulot 60 milliard dollardan 100 milliard dollargacha o'sdi, bu mustahkam va kengayib borayotgan iqtisodiyotni aks ettiradi. Bundan tashqari, o'tgan yili O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 62,6 milliard dollarga yetdi va bu uning jahon bozorida o'rni mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Sanoat ishlab chiqarishi ham kengayib, jami 56 milliard dollarni tashkil etdi.

O'zbekistonning iqtisodiy o'sish sur'ati doimiy ravishda mintaqaviy o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lmoqda. Inflyatsiya 15 foizdan 8 foizga tushdi. 2021-2023-yillarda kambag'allik darajasi 17 foizdan 11 foizga kamaydi. Bu raqamlar O'zbekistonning jadal va raqobatbardosh iqtisodiyotga aylanib borayotganini namoyon etadi.

Bunday islohotlar xalqaro miqyosda ham tan olinmoqda va xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga xizmat qilayotir. Natijada xorijiy kompaniya, sarmoyadorlar O'zbekistonni ishonchli va jozibador sarmoyaviy manzil sifatida tan olmoqda. Bu esa iqtisodiyotimizga jalb etilayotgan sarmoya oqimini ko'paytirayotir hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojiga zamin yaratmoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirish ko'zda tutilgan. Jumladan, belgilangan vazifalar izchillik bilan bajarilishi natijasida 2030-yilga kelib, mamlakat iqtisodiyotining 85 foizi xususiy sektor,

energiyaning 40 foizi qayta tiklanadigan manbalar hisobiga to'g'ri kelishi kutilmoqda. Shuningdek, 2030-yilgacha o'rtachadan yuqori daromad darajasiga erishish asosiy maqsad qilingan. Mehnat unumdorligini ikki barobar oshirish va eksport hajmini 45 milliard dollarga yetkazish ham ko'zda tutilgan.

“Ekspertlar O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini belgilab beruvchi jihatlarga to'xtalib, mamlakatimiz Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharq chorrahasida joylashgani muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidladi. Bu yurtimizni xalqaro savdo uchun tabiiy logistika markaziga aylantiradi. Masalan, O'zbekiston CAREC va TRACECA kabi muhim xalqaro transport yo'laklarining bir qismi bo'lib, bozorlarni 3 milliarddan ortiq iste'molchi bilan bog'laydi.

Bundan tashqari, yirik tabiiy resurslarimiz arzon ishchi kuchi bilan birgalikda turli sohalarda tejamkor ishlab chiqarishga zamin yaratadi. O'zbekiston asosiy resurslar, jumladan, oltin (4-o'rin), mis (10-o'rin), uran (10-o'rin) bo'yicha jahon miqyosida birinchi o'talikka kiradi.

24 milliondan ortiq aholimiz 30 yoshgacha bo'lgan, bilimli va salohiyatli yoshlar ekanini yurtimizning investitsiyaviy jozibadorligini ta'minlaydigan yana bir ulkan omildir.

Xalqaro ekspertlar bu yutuqlarimizni e'tirof etgan holda mamlakatimizda turli jabhalardagi islohotlar va istiqboldagi rejalarga haqida fikrini bayon etdi. Jumladan, AQSH — O'zbekiston savdo palatasi ijrochi direktori Yelena Sonning ta'kidlashicha, O'zbekistonning sarmoyaviy

muhitdagi islohotlari Amerika biznesining kengayishini osonlashtiradi.

Xorijiy investitsiyalar uchun tartib-taomillarni soddalashtirish, energetika va infratuzilma kabi muhim tarmoqlarda raqobatbardosh tender jarayonlarini joriy etish va tartibga solish shaffofligini oshirish orqali O'zbekiston "Fortune 100" ro'yxatidan joy olgan AQSH kompaniyalari uchun jozibador muhit yaratdi. Bu islohotlar nafaqat biznes uchun foydali, shuningdek, ular sog'lom raqobatni, samaradorlikni oshiradigan va iste'molchilarga yanada yaxshi xizmatlar ko'rsatishga olib keladigan ekotizimni rivojlantiradi. Bu dinamik bozorning o'ziga xos belgilari hisoblanadi.

Germaniya xalqaro hamkorlik fondi iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va raqobat bo'limi boshlig'i Liya Graubergning fikricha, O'zbekiston hukumati dinamik iqtisodiyotni yaratishda tadbirkorlikni rag'batlantirish muhim rol o'ynashini tan olmoqda. Moliyaviy rag'batlantirish, o'quv dasturlar va startaplarni qo'llab-quvvatlash orqali hukumat zamonamizning qiyinchiliklariga dosh berishga tayyor bo'lgan tadbirkorlarning yangi avlodini tarbiyaladi. Ular ijtimoiy qiymat yaratish va turmush darajasini oshirishda ham muhim hamkorlardir.

“Tadbirda mamlakatimizdagi biznes muhiti, sarmoyalarning kafolatlari, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun yaratilgan imkoniyatlar va hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari yuzasidan fikrlandirildi.

Bahor HAZRATQULOVA,
jurnalist

Munosabat

OLDIMIZGA QO'YILGAN USTUVOR VAZIFALAR XALQ FAROVONLIGIGA XIZMAT QILADI

Abdulla KURSANOV,
"Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yil 14-15-oktabr kunlari Toshkent viloyatiga tashrifi doirasida Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida bo'lib, sanoat tarmoqlari uchun muhandislar tayyorlash maktabi hamda "Yoshlik-1" konini o'zlashtirish, 3-mis boyitish fabrikasi qurilishining yakuniy bosqichlari bilan yaqindan tanishdi hamda 4-mis boyitish fabrikasi qurilishiga start berdi. Bu Olmaliq shahri va kombinat tarixida unutilmas voqea bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining tashrifi Muhandislik maktabi faoliyati bilan tanishuvdan boshlandi. Bu yerda zamonaviy texnologiyalar asosida mutaxassislar bilim va malakasini oshirish, o'quv jarayoni dual tizim, ya'ni ijaraga va ishlab chiqarish uyg'unligida amalga oshirilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kashning ustasi, har tomonlama yetuk, zamonaviy ilg'or texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan muhandis-texnik xodimlariga har qanday sanoat korxonasi taraqqiyotini belgilab beradi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati huzurida tashkil etilgan Muhandislik maktabida ham aynan mana shunday professional muhandis-texnik xodimlar tayyorlanadi.

Maktab faoliyati Yevropaning mis sanoati sohasidagi yirik kompaniyalar tajribasidan kelib chiqib tashkil etildi. Xususan, Germaniyaning "Aurubis" AG kompaniyasi o'quv markazining mutaxassislarni qayta tayyorlash va o'qitish bo'yicha metodologiyasidan andaza olindi.

Muhandislik maktabida geologiya, konchilik ishi, kon sanoati transportlari, markshedyerlik ishi, foydali qazilmalarni boyitish, metallurgiya, mexanika, energetika, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish yo'nalishlarida faoliyat yuritadigan mutaxassislar o'qitiladi.

O'quv dasturlari Germaniyaning Frayberg konchilik akademiyasining texnika universiteti, "Aurubis" AG va "GP Günter Papenburg" AG kompaniyalarining kadrlarni tayyorlash bo'yicha ta'lim standartlaridan

foydalanilgan holda ishlab chiqilib, tatbiq etildi.

Prezidentimiz zamon o'zgarib, innovatsiyalar kirib kelayotganiga va endi kombinat kelajagi raqamlashtirish bilan bog'liq ekaniga alohida urg'u berdi. Har bir bo'limni, ishlab chiqarishning har bir bosqichini raqamlashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida "Raqamli OKMK — 2030" strategiyasi doirasida 70 dan ortiq loyiha amalga oshirilgan. Joriy yilda Mis eritish zavodi va 2-mis boyitish fabrikasining mnemosxemalari



(SCADA) to'liq yangi tizimga o'tkazildi. 2-mis boyitish fabrikasida bunkerlar ma'dan darajasini taqsimlash maqsadida 4 tadan lazer datchiklari va zamonaviy tarozilar o'rnatildi.

“Qalmoqqir" va "Yoshlik-1" konlarida kon-transport boshqaruv tizimi doirasida ma'lumotlarni qayta ishlash markazida 8 ta server qurilmasi o'rnatilib, ma'lumotlarni saqlash hajmi 290 TBga kengaytirildi.

So'nggi olti yilda Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida sanoat mahsuloti 1,8 barobar, mahalliyashtirish 7,7 barobar, investitsiyalarni o'zlashtirish 13 barobar oshgan.

Telejkani onlayn nazorat qilish va tegirmon bunkerlarini ma'dan bilan bir me'yorda ta'minlash imkoniyati yaratildi.

Axborot xavfsizligini oshirish uchun korporativ tarmoqqa qurilmalarning ulanishini boshqarish tizimini joriy etish (NAC) natijasida barcha foydalanuvchi va qurilmalarning markazlashgan nazorati yo'lga qo'yildi.

"Qalmoqqir" va "Yoshlik-1" konlarida kon-transport boshqaruv tizimi doirasida ma'lumotlarni qayta ishlash markazida 8 ta server qurilmasi o'rnatilib, ma'lumotlarni saqlash hajmi 290 TBga kengaytirildi.

Davlatimiz rahbari tashrif chog'ida "Yoshlik-1" konini o'zlashtirish" loyihasi doirasidagi ishlar bilan ham tanishdi. Konda loyiha boshidan buyon 200 million kub metr kon yuzasini ochish ishlari bajarildi. Konning uzunligi bugun 3,7 kilometr, eni 2,3 kilometr va chuqurligi 260 metrga yetdi. 41,6 kilometr uzunlikdagi temir yo'l yotqizilib, elektrlashtirildi. 400 ta texnika vositasi

tomonidan yaratib berilayotgan qulay sharoit, puxta texnologik tayyorlikdir.

Shuningdek, davlatimiz rahbari 2021-yilda qurilish ishlari boshlangan 3-mis boyitish fabrikasidagi bugungi jarayon bilan tanishdi. Dunyodagi keskin vaziyatga qaramay, bugun bu yirik fabrika qurilishi muvaffaqiyatli yakunlanish arafasida.

Yillik quvvati 60 million tonna rudani qayta ishlashga mo'ljallangan ushbu fabrika hademay mamlakatimiz



ishlamogda. Uzunligi 4,2 kilometr bo'lgan to'xtovsiz oqim magistral konveyerlar ma'dani fabrika xomashyo omboriga tashishga tayyorlandi. Konveyer liniyasida ma'dani tashish tezligi sekundiga 4 metrni tashkil etadi. Konveyer tizimi joriy etilishi ma'dani tashish xarajatini kamida 30 foiz kamaytirmoqda.

Yana bir muhim jihati, "Yoshlik-1" konida foydalanish uchun keltirilgan, yuk ko'tarish quvvati 240 tonna bo'lgan ulkan avtosamosvallar mahalliyashtirish dasturi asosida Nurafshon shahrida "Nurafshon-maxsus-texnika" MCHJda yig'ilmoqda.

Albatta, "Yoshlik-1" konining jadal sur'atda o'zlashtirilishiga sabab davlatimiz

iqtisodiyotini yuksaltirishga munosib hissa qo'sha boshlaydi. Prezidentimiz ushbu megaloyihalarning davomi sifatida kombinatda yangi 4-mis boyitish fabrikasi qurilishiga start berar ekan, bu ulkan islohotlar yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini ta'minlash yo'lidagi xayrli ishlarning davomi va yurtimizga manfaatli bo'lishiga ishonch bildirdi.

Yangi loyihalar doirasida kombinat mutaxassislari Chili, Peru, Yevropa va Xitoyning dunyodagi yetakchi korxonalariga borib, bilim va malakasini oshirdi. Mutaxassislarimiz Xitoydagi o'nlab mis eritish zavod va boyitish fabrikalari faoliyati bilan tanishdi. Chili va Perudagi boyitish fabrikalari tajribasini o'rgandi.

Yangi fabrika dunyoning yetakchi kompaniyalaridan keltirilgan zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlanadi. Ma'dan tarkibidagi mis va kamyob metall komponentlarini samarali hamda yuqori sifatda ajratib olish uchun gravitatsiya va flotatsiya usulida kombinatsiyalashgan mukammal texnologiya tanlab olingan.

4-mis boyitish fabrikasi bizga ruda qazib olish va qayta ishlashni yiliga 120 million tonnagacha oshirish hamda dunyodagi eng yirik korxonaga aylanish imkonini beradi. Loyihaga Italiyaning "Wood" hamda Buyuk Britaniyaning "Worley Parsons" kompaniyalari jalb qilingan. Ishlab chiqarishda yuqori texnologik, ekologik xavfsiz va tejamkor texnologiyalar qo'llanishi belgilangan.

Yangi sanoat korxonalarini bunyod etilishi Olmaliq shahri va hududlarning infratuzilmasi yanada yaxshilanishi, aholi farovonligi oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi olti yilda Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida sanoat mahsuloti 1,8 barobar, mahalliyashtirish 7,7 barobar, investitsiyalarni o'zlashtirish 13 barobar oshgan.

Davlatimiz rahbari bizga katta ishonch bildirmogda. Jamoamiz, o'z navbatida, belgilangan vazifalarni yakdillik bilan bajarishga kirishgan. Zero, oldimizga qo'yilgan bu muhim topshiriqlar ijrosi xalq farovonligiga xizmat qiladi. Shunday ekan, shu ustuvor siyosatga hamohang holda yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etib, ish o'rinlarini shakllantirib, bor kuch va imkoniyatimizni safarbar qilib, xalqimiz farovonligini ta'minlashni o'zimizning bosh maqsadimiz deb bilamiz.



YUZMA-YUZ MULOQOTLAR
XAYRIXOHLARIMIZ SAFINI
KENGAYTIRMOQDA

Ayni kunlarda mamlakatimizning barcha hududlarida 27-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi hamda viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatligiga bo'lib o'tadigan saylovoldi targ'ibot va tashviqot ishlari qizg'in pallasga kirdi. Xususan, deputatlikka nomzodlar saylovchilarni o'z dasturlarida ilgari surilayotgan maqsad va vazifalar bilan yaqindan tanishtirmoqda.

ADOLAT
SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI

Jumladan, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan Qonunchilik palatasi hamda mahalliy Kengashlar deputatligi uchun ko'rsatilgan nomzodlar ham hududlarda saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazmoqda. Ularda saylovchilar partiya Saylovoldi dasturida belgilangan muhim taklif va tashabbuslar bilan yaqindan tanishtirilmog'.

Ana shunday targ'ibot va tashviqot tadbirlarining dastlabki Samarqand viloyati saylovchilari bilan tashkil etildi. Unda Siyosiy Kengash raisi Robaxon Maxmudova, viloyat va mahalliy Kengashlar xodimlari, partiya faollari, deputatlikka nomzodlar, mahalla faollari, saylovda ilk bor qatnashayotgan yoshlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Partiya yetakchisi o'z ma'ruzasida yangi Saylovoldi dasturida xalqimiz orzu-istaklari, fikr-mulohazalari, ko'plab sohalarda rivojlanish istiqbollari qamrab olinganligini, har bir

Nukus shahridagi qoraqalpog' etno ovulida bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashiga, tuman va shaharlar Kengashi deputatligiga ko'rsatilgan nomzodlar yig'ilganlari partiya Saylovoldi dasturi bilan tanishtirdi.

Xususan, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod Shaxnoza Abdiramanova saylovchilarni hamda mahalliy Kengashlar deputatligiga ko'rsatilgan nomzodlar yig'ilganlari partiya Saylovoldi dasturida ekologik muammolarni hal etish, bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarni birlashtirish, birinchi navbatda, ushbu muammolarning iqtisodiy jihatlari alohida e'tibor qaratilganligini ta'kidladi.

Bugun barcha ekologik muammolarni va u bilan bog'liq fuqarolar salomatligini himoya qilish masalalarini faqat davlat byudjetiga yuklash to'g'ri bo'lmaydi. Shu bois, biz "Ekologiyani ifloslantiruvchi — kompensatsiya to'lashi lozim" degan prinsip tarafdorimiz, — dedi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod Shaxnoza Abdiramanova.



yo'nalishda ilgari surilgan xalqchil takliflar partiyaning kelgusi besh yillikdagi ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishiga alohida to'xtaldi.

Shundan so'ng Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod Muhammad Yaliyev Saylovoldi dasturidagi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, partiya elektorati vakillarining ijtimoiy muhofazasi va xotinjizlar mehnat huquqlarini himoya qilish, jamiyatdagi tenglikni ta'minlash hamda davlat boshqaruvining shaffofligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator g'oya va tashabbuslar bilan saylovchilarni tanishtirdi.

Uchrashuvda so'zga chiqqan tadbir ishtirokchilari ham partiya Saylovoldi dasturini qo'llab-quvvatladilar.

Partiyamiz tomonidan ma'naviy taraqqiyotga erishish, mamlakatimizda ilmfan, innovatsiyalar va ta'lim sohasining barqaror rivojini ta'minlashga qaratilgan g'oyalarning ilgari surilganligi men kabi barcha samarandliklarni quvontirdi, — dedi tadbirda so'zga chiqqan partiya faoli Asqar Xoliqov.

Partiya sun'iy intellekt asosida "aqli maktab" dasturini ta'lim tizimiga joriy etishni ustuvor vazifalardan biri deb biladi. Darhaqiqat, maktab ta'limi — kelajak asosi. Faqat zamonaviy ma'rifat, chuqur bilimning bizni yorqin kelajakka boshlab boruvchi yo'ldir. Shu sababli ham dasturda ta'lim sohasini isloh qilish taklifi ilgari surilgan ko'pchilikka manzur bo'ldi.

Adolatlarning navbatdagi saylovoldi uchrashuvi Qoraqalpog'iston Respublikasi

Toshkent pediatriya tibbiyot institutida bo'lib o'tdi. Tadbirda ta'kidlanganidek, Saylovoldi dasturida ilgari surilayotgan g'oya va vazifalar "Adolat" partiyasining dasturiy maqsadlariga har jihatdan hamohang bo'lib, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida adolat tamoyillarini barqaror ta'minlashni nazarda tutadi.

Saylovoldi dasturida partiya uchun tibbiyot sohasidagi birinchi galdagi vazifa sifatida tibbiyot xodimlarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ularning huquqlarini kafolatlash, o'lis va chekka hududlardagi oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarda tor soha mutaxassislari faoliyatini yo'lga qo'yish taklif qilingan.

Qolaversa, partiya aholiga kafolati tibbiy xizmat ko'rsatish va sohada zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish borasida "Aqli tibbiyot" tizimining huquqiy asoslarini ishlab chiqib, sog'liqni saqlash tizimini to'liq raqamlashtirish, "elektron poliklinika" va "yagona elektron anketa" tizimlarini yo'lga qo'yishni muhim deb hisoblaydi.

Dasturdan o'rin olgan eng muhim masala, albatta, xalq salomatligi masalasidir. Xususan, partiya nodavlat tibbiyot tashkilotlarini tijorat tashkilotidan notijorat tashkilotga o'tkazish bo'yicha amaliy choralarini ko'rish taklifini ilgari surmoqda. Ya'ni partiya tibbiyot daromad olish manbaiga aylantirilishini to'xtatib, deydi Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi deputatligiga nomzod Luiza Xikmatova. Buning mexanizmlari, xususan, tibbiyot sug'urtasini rivojlantirish esa ko'pchilik mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilishi kerak bo'ladi.

Partiya faollarining Toshkent viloyatidagi "Nurafshon business city" xiyobonida "Teng imkoniyatlar va adolati jamiyat sari!" shiori ostida bo'lib o'tgan ommaviy tadbir nafaqat Toshkent viloyati aholisi, qolaversa, boshqa hudud saylovchilari ko'nglidan ham chuqur joy egalladi.

Ommaviy tadbirda so'zga chiqqanlar tomonidan partiyamizning so'nggi yillardagi samarali faoliyati va Saylovoldi dasturida ilgari surayotgan g'oyalari haqida batafsil ma'lumot berildi. Jumladan, partiyamizning asosiy maqsadi — xalqimiz uchun munosib, adolat va qonun ustuvor bo'lgan jamiyat barpo etish ekanligi alohida ta'kidlandi.

Partiyamiz dasturida deputatlarimiz saylovchilar bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotini

yo'lga qo'yish va muammolarga joyida yechim topish maqsadida deputatlar ish vaqtining yarmini, albatta, o'z saylovchilari oldida o'tkazishini belgilovchi tartibni joriy etish taklif qilingan, — dedi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod Bexzod Tuxtamurodov.

Umuman, o'tkazilayotgan bu kabi ommaviy tadbirlar partiyamizning saylovoldi faoliyatining muhim qismi, shu bilan bir qatorda, xalq bilan yaqinlashishining va birgalikda yangi o'zgarishlarni amalga oshirishning huquqiy mexanizmi hamdir.

Shu nuqtayi nazardan, "Adolat" SDP bunday samarali targ'ibot tadbirlarini mamlakatimizning boshqa viloyat, tuman va shaharlarida tizimli ravishda o'tkazib kelmog'uda. Ushbu tadbirlar orqali aholi orasida partiyamizning g'oyalari yanada kengroq targ'ib qilish, saylovchilarning ahamiyatini oshirish va fuqarolarni saylov jarayoniga faol jalb etish maqsad qilingan.

Xulosa qilib aytganda, hududlarda bo'lib o'tayotgan ommaviy tadbirlar va uchrashuvlarda so'zga chiqqanlar partiya Saylovoldi dasturida taklif etilayotgan ustuvor maqsad va g'oyalar xalq farovonligi, Vatan ravnaqiga xizmat qilishini e'tirof etib, tadbir ishtirokchilari joriy yilning 27-oktabr kuni bo'lib o'tadigan saylovda O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi va uning nomzodlarini qo'llab-quvvatlashga chaqirmoqda.

O'zbekiston "Adolat" SDP
Matbuot xizmati

Ekspertlar fikri

SAYLOVNI DEMOKRATIK
RUHDA O'TKAZISH UCHUN ISHTIYOQ
VA ISHONCH YUQORI

Poytaxtimizda "Yangi O'zbekiston: taraqqiyot, innovatsiya va ma'rifat" mavzusida xalqaro hamkorlik tashabbuslari haftaligi davom etmoqda. Haftalik doirasidagi davra suhbatlaridan biri yurtimizdagi konstitutsiyaviy islohotlar va saylov qonunchiligimizdagi o'zgarishlarga bag'ishlandi. Tadbirda ishtirok etgan xorijlik ekspertlar fikrlari bilan qiziqdik.

Ijobiy o'zgarishlarning guvohi bo'ldim

Raimundas KALESNYKAS,
Kazimiyeras Simonavisius
universiteti professori
(Latviya):



— Saylov demokratiyaning asosiy instituti sifatida har qanday davlatning siyosiy hayotida muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda "Inson qadri uchun" ustuvor g'oyasidan kelib chiqib, fuqarolarning davlat boshqaruvida yanada keng ishtirok etishini ta'minlash maqsadida saylov qonunchiligi takomillashtirilgan. Jumladan, O'zbekistonda ilk marotaba deputatlik saylovi aralash saylov tizimi (majoritar va proporsional) asosida o'tkazilayotganiga guvoh bo'lmoqdaman.

Albatta, bu tizim dunyoning

kelinmoqda. Saylov tizimini modernizatsiya qilayotganda shaffoflik, adolat va tenglik kabi konstitutsiyaviy qadriyatlarga muvofiqlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston ayni shu jihatlarga e'tibor qaratayotgani quvonarli.

Taklif sifatida aytmoqchiman, saylovchilarning ovoz berish huquqini amalga oshirishni yanada kuchaytirish maqsadida elektron ovoz berish tizimi ham joriy etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zero, shaffof va hisobdor saylov tizimi jamoatchilikning demokratiyaga ishonchini kuchaytiradi, siyosiy befarqlikni kamaytiradi va saylovchilar faolligini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda navbatdagi saylov jarayoniga puxta tayyorgarlik ko'rilgan. Ishonamizki, mazkur saylov jarayoni har qachongidan-da adolatli va ishonchli o'tadi.

Saylovchilar mamnun ko'ringanidan
ko'p narsani anglasa bo'ladi

Ik Heon RHEE,
Mokvon universiteti
professori (Janubiy Koreya):

— Demokratik saylov qanday bo'lishi kerakligi haqida qat'iy qoidalar yoki umumiy qabul qilingan me'yorlar mavjud emas. Ammo saylovni demokratik deb atash uchun adolat, erkinlik, keng qamrovlilik, oshkorlik kabi asosiy talablar bajarilishi shart. Saylov xalq irodasini aniq aks ettirib, hukumatni shu asosda shakllantirish zarur. Saylov qonunchiligi qanchalik yaxshi bo'lmasin, agar mustaqil saylov komissiyasi bo'lmasa, saylov natijalari soxtalashtirilishi ehtimoli doimo saqlanib qoladi.

Mamlakatingizdagi o'zgarishlarning xalqaro standartlarga mosligi menga juda ma'qul bo'ldi. O'zbekiston huquqiy islohotni asosiy milliy vazifa sifatida tanlagani va qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida uni doimiy ravishda amalga oshirib kelayotgani haqidagi maqolalarni o'qidim. Har besh yilda parlamentga saylov hamda har yetti yilda Prezident saylovi o'tkazilishi, jarayon adolati va samarali bo'lishi uchun saylovni boshqarish komissiyasi mavjudligidan xabardorman.

O'zbekistondagi siyosiy jarayonlar bilan tanishman. 2019-yilgi saylov va 2023-yilgi Prezident saylovida xalqaro kuzatuvchi sifatida ishtirok etgandim. Qisqa vaqt ichida hamma narsani bilish va tushunish qiyin esda, ovoz berayotgan odamlar mamnun ko'ringanidan ko'p narsani anglasa bo'ladi. Ovoz berish joylari va ovoz berish jarayonlari Janubiy Koreyadagi bilan deyarli bir xil.

Barchaga mos keladigan yagona saylov tizimi yo'q. Bir xil tizim ham tarix, siyosat, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarga qarab turlicha natijalar berishi mumkin. Shu bois, xalq saylov orqali hukumatni shakllantirishi uchun



mahalliy sharoitlarga mos o'zgarishlar zarur bo'ladi. O'zbekiston hukumatining doimiy islohotlar o'tkazish va saylov jarayonining xalqaro kuzatuvchilarga ochiqligini ta'minlash istagi demokratik saylov o'tkazish ishtiyoqi va ishonchning ifodasi ekaniga ishonaman.

O'zbekiston hukumatining doimiy islohotlar o'tkazish va saylov jarayonining xalqaro kuzatuvchilarga ochiqligini ta'minlash istagi demokratik saylov o'tkazish ishtiyoqi va ishonchning ifodasi ekaniga ishonaman.

Demokratik tamoyillar, qonun ustuvorligi
va mulk huquqini mustahkamlashga
qaratilgan jiddiy islohotlar

Hasan ali KULAK,
Istanbul moliya markazining
huquqiy masalalar
va jamoatchilik bilan aloqalar
bo'yicha direktori (Turkiya):



— Saylov demokratiya poydevorlaridan biri bo'lib, nafaqat fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etishini va hokimiyatning hisobdorligini kafolatlaydi, balki iqtisodiy rivojlanish bilan ham uzviy bog'liqdir. U iqtisodiy siyosatni shakllantirish, manbalarni taqsimlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida demokratik tamoyillar, qonun ustuvorligi va mulk huquqini mustahkamlashga qaratilgan jiddiy islohotlar nazarda tutilgan. Ushbu o'zgarishlar xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya erkin va adolati saylovni ta'minlaydigan hamda siyosiy barqarorlikka xizmat qiladigan demokratik saylov tizimiga sodiqlikni mustahkamlaydi. Shuningdek, u

qonun ustuvorligi tamoyilini kuchaytiradi, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini kafolatlaydi va sud hokimiyati mustaqilligini oshiradi.

Bundan tashqari, Konstitutsiya mulk huquqini himoya qilishni kuchaytiradi, investorlar uchun ko'proq xavfsizlikni ta'minlaydi va ham ichki, ham tashqi investitsiyalarni rag'batlantiradi. Ushbu konstitutsiyaviy islohotlar O'zbekistonning yanada ochiq, bashorat qilinadigan va

xavfsiz investitsiya muhitini yaratishga intilayotganidan dalolat beradi. Bu esa xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish uchun g'oyat muhimdir.

Saylov siyosiy partiyalarni o'z iqtisodiy faoliyatini baholashga majbur qiladi va muqobil strategiyalarni taklif etish zaruriyatini tug'diradi. Iqtisodiy tendensiyalar saylovchilarning afzalliklariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu esa siyosiy partiyalarni aholining iqtisodiy kutilmalariga mos keladigan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishga undaydi.

Xususan, O'zbekistondagi partiyalar aholi daromadini yaxshilash, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtojlarni qo'llab-quvvatlash kabi tashabbuslarni saylovoldi dasturlarida ilgari surmoqda. Bu esa odamlarning saylovlarga e'tibori hamda mas'uliyatini oshiradi, shuningdek, ularning mamlakatda kechayotgan islohotlarga ishonchini oshiradi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Bahor XIDIROVA tayyorladi.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH - umumiy harakat, yagona maqsad



IV TOSHKENT AKSILKORRUPSIYA FORUMI TASHKENT ANTI-CORRUPTION FORUM

Boshlanishi 1-betda

Akmal BURXONOV,
O'zbekiston Respublikasi
Korrupsiyaga qarshi kurashish
agentligi direktori:



— Korrupsiyaga qarshi kurash jahon mamlakatlari va insoniyat uchun umumiy harakat, yagona maqsad bo'lib kelmoqda. Ushbu forum orqali ana shu istak va intilishni amalga oshirish uchun muhim muloqot maydoni yaratishni ko'zlaganmiz va bu besamar ketmayvapti. Chunki forum mamlakatimiz misolida korrupsiyaga qarshi kurashishning yangi preventiv mexanizmlarini joriy etishga katta yordam bermog'da.

Xalqaro va hamkor tashkilotlar ko'magida O'zbekistonda davlat boshqaruvi to'ldirilishi: korrupsiyaning oldini olishda inklyuziv yondashuv" hamda "Milliy korrupsiyaga qarshi kurashish ekotizimini kuchaytirish" loyihalarini ishga tushirdik.

O'ylaymanki, bu galgi forum nafaqat O'zbekiston, balki tadbirda ishtirok etgan barcha davlatlar va tashkilotlar uchun ham o'zaro manfaatli yechimlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish imkonini beradi.

Tuyya BRAKS,
Finlyandiya Qonun ustuvorligi
markazi rahbari:



— Finlyandiya fuqarolik jamiyati institutlari korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini yaratishda faol. Mamlakatimizda 100 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilot faoliyat yuritadi, bu har 4 fuqaroning 3 nafari ixtiyoriy ravishda bunday tashkilotlar ishida ishtirok etishini anglatadi.

Korrupsiyaviy holatlarni aniqlashda mustaqil bo'lgan medianing ham o'rni katta. 2020-yilda O'zbekistonda tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Finlyandiya OAV mustaqilligi bo'yicha dunyoda 2-o'rinni egallagan. Fuqarolik jamiyati va hukumat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash uchun butun davlat sektorini qamrab olgan Ochiq hukumat harakat rejasini mavjud. Ammo bular Finlyandiyaning korrupsiyadan xoli mamlakat ekanini anglatmaydi. Bizda ham yashirin, ya'ni mahalliy darajada korrupsiya bor. Demak, davlat va jamiyat islohini quyidan boshlash muhim.

O'zbekiston bu borada to'g'ri yo'ldan bormog'da. Sohadah aholi va davlat xizmatchilari bilimini oshirishning uzluksiz tizimini yaratish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi tashkil etilayotganini bunga asos deya olaman. Bu tashabbus barcha daraja va bo'g'inda korrupsiyaning oldini olishga katta yordam beradi. Shaxsan men Finlyandiya tajribasi asosida ishlab chiqilgan "Mahalliy boshqaruvda korrupsiyaga qarshi kurash" qo'llanmasi hamda boshqa tadqiqotlarimiz akademiyaga o'quv dasturi uchun foydali bo'ladi deb o'ylayman.

Ulan SARQULOV,
Qozog'iston Respublikasi
Korrupsiyaga qarshi kurashish
agentligi raisining birinchi
o'rinbosari:



— Qozog'istonda 2015-yildan boshlab davlat xizmatchilari xizmat vazifalari bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ysa, lavozimidan ozod qilinishi tizimi joriy etilgan. Natijada o'tgan yilning o'zida davlat xizmatida 266 ta manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlanib, to'liq bartaraf etildi, 2 mingdan ziyod korrupsiyaviy xavf-xatar baholandi. 2022-2024-yillarda kompaniyas nazorat tuzilmalari tomonidan moliyaviy qonunbuzilish holatlari bo'yicha 6200 ta o'rganish o'tkazildi, nazorat tuzilmalari uchun kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan 2 ta magistratura yo'nalishi ochildi.

O'zbekiston bu kabi ishlarda qisqa vaqt ichida katta tajriba orttirishga muvaffaq bo'lyapti. Masalan, bugungi kunda mamlakatda 117 ta davlat organi va tashkilotida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat

tuzilmalari joriy etilgani, 60 ta idoraning korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqlik tasdiqlangani ortiqcha izohga hojat qoldirmaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholashga qaratilgan E-Anticor.uz platformasi, yaqinda kuchga kiradigan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun va undan o'rin olgan tartib-qoidalar ham alohida e'tiborini tortdi.



Oliver STOLP,
BMT Giyohvandlik moddalar va
jinoyatchilikka qarshi kurashish
boshqarmasining Markaziy Osiyodagi
mintaqaviy vakili:

— O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun shaffoflik, ochiqlik, fuqarolik jamiyati yaxshi yo'lga qo'yilgan. O'tgan

yili mamlakatimiz xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yuksak mukofot bilan taqdirlash marosimiga mezbonlik qildi. Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mintaqaviy platforma ishga tushirildi. Aksilkorrupsiya forumini o'tkazish ana tusini olgan. Bularning bari O'zbekistonning aksilkorrupsiya siyosati samarasi va e'tirofidir.

Davlatimiz rahbari, ayniqsa, yosh avlod ongiga halollik vakinasini singdirish muhimligini ta'kidlagan edi. Bu borada, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish ta'lim dasturini ishlab chiqish va uni yoshlar orasida tatbiq qilish kerak. O'zbekiston ayni yo'nalishda yoshlarda korrupsiyaga murosasizlik kayfiyatini shakllantirishga qaratilgan global resurs — GRACE dasturini amalga oshirishni boshlab yuborgani o'qishga sazovor. Erta yoshdan axloqiy qadriyatlarini singdirish orqali nafaqat korrupsiyaga qarshi kurashish ahamiyatini tushunadigan, balki ushbu standartlarni saqlashda faol ishtirok etadigan avlodni tarbiyalash mumkin.



Tamta KACHKASHVILI,
Gruziya Korrupsiyaga qarshi
kurashish byurosi direktorining
birinchi o'rinbosari:

— Gruziya Korrupsiyaga qarshi kurashish byurosi mustaqil, faqat Prezident oldida hisobdor. Bu jihatdan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish

agentligi bilan o'xshashliklarimiz ko'p. Shu yil idoralarimiz o'rtasida o'zaro hamkorlik memorandumini imzolandi va uning asosiy yo'nalishlaridan biri korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirishda tajriba almashish sanaladi. Forumdagi ishtirokimiz birgalikdagi maqsad va sa'y-harakatlarimizning natijasi.

Forum orqali O'zbekistonning aksilkorrupsiya islohotlari samarasiga yana bir karr ishonch hosil qildim. Dunyoning turli nuqtalaridan yetakchi ekspertlar, xalqaro tashkilotlar, diplomatik korpus va hukumat vakillarini bir manzilga jamlab, korrupsiya muammolariga ularning e'tiborini qaratish, yanada faollikka undash, hamkorlikka chorlash qanchalik qat'iylik va jur'at, tashabbus talab qilishini yaxshi anglayman. Buning uchun, avvalo, tashabbuskor mamlakatning o'zi sohada e'tirof va namunaga arizlik bo'lishi kerak. O'zbekiston bu jihatdan ijobiy xulosalarga munosib va buni forum ishtirokchilari ham yana bir bor tasdiqladi.



Liu SHUO,
Xitoy Xalq Respublikasi nazorat
bo'yicha milliy komissiyasi
bosh direktori kotibiyati rahbari:

— 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan komissiyamiz o'rtasida o'zaro hamkorlik bo'yicha memorandum imzolangan. Shundan buyon davlat xizmatida halollik standartlarini

joriy etish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, davlat xizmatchilarini korrupsiyaga qarshi muntazam o'qitish, davlat xizmatida shaffoflikni ta'minlash kabi qator yo'nalishlarda o'zaro aloqalarimiz tobora rivojlanib bormog'da.

Forum orqali hamkorlikdagi ishlarimizni yana bir muhokama qilib oldik. Jumladan, O'zbekistonda tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi doirasida davlat xizmatchilari uchun halollik masalalari bo'yicha o'quv dasturlari ishlab chiqishda ekspertlarimiz ham yaqindan yordamlashib, o'z tajribasi bilan o'roqlashadi. 2025-yilgi keng qamrovli idoralararo hamkorlik dasturini ishlab chiqish va imzolash yuzasidan ham kelishuvga erishdik.

Shuningdek, mamlakatlarimiz o'rtasida BMT GJB ko'magida amalga oshirilgan "Ipak yo'li iqtisodiy makoni bo'yab joylashgan davlatlarda BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi amalga oshirilishini ko'zlab-quvvatlash orqali barqaror rivojlanishga ko'maklashish" loyihasi bo'yicha hamkorligimiz ham izchil davom etadi.

Akiko FUJII,
BMT Taraqqiyot dasturining
O'zbekistondagi doimiy vakili:



— Mintaqaviy va mahalliy darajada korrupsiyaning oldini olish uchun, avvalo, u eng sezilarli va odamlarga bevosita ta'sir ko'rsatadigan sohalarda muntazam sa'y-harakatlar qilinishi kerak. Bu, o'z navbatida, mahalliy hokimiyat organlarida halollik sohasidagi institutsional salohiyatni oshirishni talab etadi.

Ochiqlik va shaffoflik tomon muhim siljish. Biz O'zbekistonda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan uzoq vaqtdan beri turli yo'nalishlarda, jumladan, davlat sektorida korrupsiyaga qarshi kurashish uchun turli raqamli yechimlarni birgalikda ishlab chiqmoqdamiz. Ushbu forum maqsad va vazifalarimizga yangi nazar, katta kuch va yanada mas'uliyat bilan yondashishga undadi.

Samuel BVANA,
Jahon banki halollik
vitse-prezidentligi menejeri:



— Korrupsiyaga qarshi kurashishda sun'iy intellekt, blokcheyn va raqamli texnologiyalar bilan yangi davr boshlanmog'da. Masalan, davlat xaridlarida sun'iy intellekt bilan foydalanish shaffoflikni oshirib, jamoatchilik nazoratini kuchaytirmog'da, qolaversa, katta miqdordagi axborotdan foydalanishda qulayliklar yaratmog'da.

O'zbekistonda ham elektron hukumatni joriy qilish orqali axborotlarni tezkor tahlil etish, ortiqcha qog'ozbozliklarga chek qo'yish va shaffoflikni oshirishga erishilayotganining guvohi bo'lyapmiz. Forumda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida foydalanilayotgan axborot texnologiyalari to'g'risida yanada batafsil ma'lumot berildi. Masalan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish" yagona axborot kompleksi, "Davlat xaridlari monitoringi", "Byudjet tashkilotlarida ish haqi monitoringi" modullari, "Globus" axborot tizimi joriy etilishi, o'ylaymanki,

mamlakatda korrupsiyaning oldini olishdagi katta yutuq va imkoniyatlarga real hissa qo'shadi. O'zbekistondagi korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlari rivojiga bundan buyon ham faol ko'maklashamiz, buning asosi va isboti sifatida forum doirasida mamlakatning Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan o'zaro anglashuv memorandumini imzoladik. Ushbu hujjatda o'zaro hamkorligimizning yangi yo'nalishlari, umumiy maqsad va vazifalarimizni aniq-ravshan belgilab oldik.

Egidiyus RADZEVICHYUS,
Litva maxsus tergov xizmati
direktori o'rinbosari:



— O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan unumli foydalanishga katta e'tibor va harakatni ko'ryapman. Misol uchun, davlat xaridlari, qurilish, elektron savdo sohaliga axborot texnologiyalari joriy qilingan davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali davlat xizmatchilari va fuqarolar o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri muloqot kamaytirilmog'da.

Bundan tashqari, mamlakatda qonunchilik hujjatlari loyihalarini "korrupsiyadan xoli qonunchilik" tamoyili asosida ishlab chiqish va korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tartibi joriy etilgani ham alohida e'tiborga molik.

Litvada bu yildan boshlab qonunchilik hujjatlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish amaliyotida sun'iy intellekt texnologiyasi qo'llanyapti. Bu orqali normativ-huquqiy hujjatlarini real vaqt rejimida tahlil etish, mavjud yoki ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash imkoniyati yaratildi.

O'zbekistonlik hamkasblar bilan bu boradagi faoliyatni yanada takomillashtirish

bo'yicha o'zaro fikr almashdik, tavsiya va takliflarimizni bildirdik. Muloqotlar mobaynida mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha hali ko'p ishlar qilinishi kerakligi, katta reja va maqsadlar borligiga amin bo'ldim. Eng asosiy, bularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun kuchli istak, zarur imkoniyat va salohiyat borligiga ishonchim yanada ortdi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Lutfulla SUVONOV tayyorladi.

Taraddud

TEJAMKORLIK ENG MAQBUL YECHIM

Boshlanishi 1-betda

Buning uchun mahalliy byudjetdan 10 milliard so'm ajratilgan bo'lib, kuz-qish mavsumiga zarur jihozlar xarid qilinib, zaxira yaratildi. Korxonamiz huzuridagi sexning o'zida transformatorlarni ta'mirlash yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, barcha texnika va avtotransportlar mavsumga shay holatga keltirilgan. Qolaversa, elektr energiyasini tejash bo'yicha ham belgilangan reja asosida ishlab chiqarish korxonalar va aholi xonadonlarida targ'ibot ishlari yuritilmoqda, — deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Navoiy viloyati filiali direktori Bobur Islomov.

qish mavsumini talafotsiz o'tkazish maqsadida yuqori kuchlanishli transformator punktlari va elektr uzatish tarmoqlarida joriy va mukammal ta'mirlash ishlari bajarildi. Soha xodimlari tomonidan elektr energiyasidan tejamkorlik bilan foydalanish, aholi xonadonlari va tadbirkorlik subyektlariga quyosh panellari o'rnatish borasida xam muayyan ishlar qilinmoqda.

Tahlillarga ko'ra, Navoiy shahridagi bozorlarda 362 ta savdo do'koni mavjud. Shundan 187 tasida quyosh paneli o'rnatish imkoniyati bor. Ularning tomiga 2 kilovattlik quyosh paneli o'rnatilsa, bir kunda 16 kilovatt, bir oyda 480 kilovatt, bir yilda esa 5760 kilovatt elektr energiyasi va 5 million so'mdan ziyod mablag'ni tejash imkoni vujudga keladi.

Ayrim klaster, fermer va dehqon xo'jaliklari hisobidagi suv nasoslarining katta quvvatli dvigatellar yordamida ishlashi tufayli elektr energiyasi me'yoridan ko'p sarflanmog'da. Bunday holatlar nazoratga olinib, eski jihozlarni



tejamkoriga almashtirish chorasi ko'rilmog'da. Ayni vaqtda Navoiy viloyatida qishloq xo'jaligiga ixtisoslashtirilgan 724 ta klaster, fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyat yuritaypti. Ular hisobida 920 ta nasos agregati mavjud.

— Elektr energiyasini tejash maqsadida fermer xo'jaliklarida foydalanilayotgan ma'nan eskirgan nasos va texnikalarni yangi turdagi tejamkor texnologiyalarga almashtirish bo'yicha tavsiyalar, zarur ma'lumotlar berilmog'da. Buning natijasida 57 foizgacha elektr energiyasini tejash ko'zda tutilgan. Qolaversa, fermerlar tejalgan mablag'ni boshqa agrotadbirlarga sarflab, faoliyatini rivojlantirish mumkin, — deydi Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi boshlig'i Jasur Nazarov.

Navoiy — sanoatlashgan hudud. Ishlab chiqarish korxonalarini ham ko'paymog'da. Albatta, bu jarayon elektr energiyasi va tabiiy gaz sarfini oshiradi. Shu bois, iqtisodiy zonalarida faoliyat yurituvchi va boshqa korxonalarda zamonaviy tejamkor texnika va jihozlardan foydalanishga o'tilmog'da yoki quyosh panellari o'rnatilmog'da.

— Joriy yilda tabiiy gazni tejash bo'yicha rejalarni belgilab olganmiz. Bunda kichik va o'rta biznes hamda yirik quvvatli iste'molchi korxonalarda tejamkor texnologiyalar o'rnatishga alohida e'tibor qaratilmog'da. Shuningdek, isitish qozonlarini modernizatsiya qilish orqali tabiiy gaz sarfini kamaytirishga erishilmog'da. Shu maqsadga viloyat bo'yicha 1600 dan ziyod kichik va o'rta biznes, 94 ta yirik korxonada isitish qozonlarini yangisiga almashtirish choralari ko'rilmog'da. Bundan tashqari, shahar va tumanlardagi gaz ta'minoti bo'limlari xodimlari tomonidan aholi xonadonlaridagi nostonand gorekalar o'rni xuddi shunday tejamkor jihozlar o'rnatilmog'da, — deydi "Hududgaz Navoiy" gaz ta'minoti filiali direktori o'rinbosari Jaloliddin Xudoyqulov.

Kuz-qish mavsumi boshlanaypti. Uni ko'ngildagidek o'tkazish uchun esa energiya resurslarini tejash, iste'mol madaniyatini oshirish zarur. Ana shunda energetika sohasidagi islohotlar samarasi aholining hayotida namoyon bo'laveradi.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri




Dildagi gaplar

KO'NGIL MULKIGA SAYOHAT

Ilm — zulmatning kushandasi

Bir yig'inda ma'ruzachi islom dinida olimlik bag'oyat yuksak martabaga egaligini o'ta ta'sirchan misollar bilan tushuntirib berdi. Erkensal degan olim bundan ko'p yillar avval "Zamonaviy ilmlarning tamal toshini qo'yishdek sharafli vazifa musulmonlarga tegishlidir", deb yozgan. Allen Debusning bu xususdagi fikri yanada g'ururli: "Musulmonlar Uyg'onish davriga debocha bo'lgan texnologik o'sishlar eshigini ochib berishdi. Afsuski, keyinchalik johillik degan illat urchidi. Ilm-ma'rifat yo'llarida g'ovlar paydo bo'ldi, uxroviy va dunyoviy ilmlar o'rtasida o'tib bo'lmas devor tiklanib, ular bir-biriga zid qo'yildi. Din olimi zamona ilmiga e'tibor bermadi, dunyo olimi, aksincha, moddaparastlikni "chin ilm" deb bayroq qildi, boshqalarni ham shu fikrga chorladi".



Ahmadjon MELIBOYEV, yozuvchi

1922-yili "Haqiqat" jurnalida chop etilgan maqolalardan birida bunday jumalar bor: "So'nggi asrlardagi ma'rifatsizlik, johillikning sababi ilmsiz, ma'rifatsiz xonlar elning chirog'i-yo'lbochchisi bo'lgan ulamolarni o'z bo'yinturug'lari ostiga olib, sof yo'lni o'z shaytanat yo'llariga tabiiq etishganidir".

Alloma Alixonto'ra Sog'uniy bu fikrni yanada rivojlantiradi: "O'zlarini din homiylari deb e'lon qilgan hukmdorlar xalqni ma'rifat nuridan mahrum, zamonaviy bilim ilmlardan butunlay yiroq tutdilar. Shuning uchun xalqda uyg'onish, fikriy ochilish bo'lmadi. Davlatning inqirozi, millatning ongizligiga shu johillar sababchidir".

Donishmandlar "Ilm ochilmagan qalb ko'zini ochuvchi, qorong'u zulmatga nur bag'ishlovchidir, zaif badanlarga kuch-quvvatdir, ilm bilan banda yaxshi kishilar darajasiga ko'tariladi, oliy martabalariga yetishadi" deb allaqachon aytib qo'yan. Demak, biz bugun — Uchinchi Rennassans ostonasida texnologik o'sishlar eshigini yanada keng ochib, yoshlarni uning beqiyos imkoniyatlaridan bahramand etishimiz kerak. Millat rivojining bardavomligi uchun bundan boshqa yo'l yo'q.

Har kimmiki o'ziga...

G'arbda oilaviy munosabatlar butunlay boshqacha. Masalan, nikohsiz yashab, farzand ko'rish ayb sanalmaydi. Ko'ngillari boshqani



O'rinsiz xavotir

Tahririyatga shikoyat xati bilan kelgan o'rta yoshli kishidan kasb-korini so'rash, o'ylab o'tirmay: "Olti bolaning otasiman, birodar", deb javobni qisqa qildi. Suhbatdoshimning fikrini anglab, ko'nglim ko'tarildi. Xudo bergan olti farzandni "qushga cho'qitmay, yo'lda qoqiltirmay" voyaga yetkazish, odob-axloqlik, ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalashning o'zi g'oyat mas'uliyatli lavozim emasmi?! Bugunning va, shubhasiz, ertangi kunimizning, undan keyingi davrlarning ham eng muhim vazifasi shu.

Tasavvur qiling, agar o'sha olti farzandli ota bolalari tarbiyasi bilan shug'ullanmay, ularni o'z holiga tashlab qo'ysa, yosh g'unchalar ko'cha "tarbiya"sini olsa, ertaga jamiyat oldida oltita jiddiy muammo paydo bo'lmaydi, deb kim ayta oladi? Goho bola tarbiyasi bilan shug'ullanib, uyda qolayotgan ayollarga bepisand munosabatlarga bo'lalimiz. Kelajakda qaysi bir oilaning baxti, halovati, jamiyat uchun kerakli shaxsning kamolga yetishi ayni shu — bugun uyda farzandiga tarbiya berayotgan, o'g'li, qizi, nabirasini hidoyat yo'lga boshlab, ularni g'arazli, buzg'unchi "shamol"lardan asrayotgan ayolga bog'liqligini o'ylab ham ko'rmaymiz.

Bola tarbiyasi — bugun ekib, peshindan keyin hosili o'rib olinadigan mavsumiy ish emas. Bolani tarbiyalayotib, o'zimiz ham tarbiya olamiz. Bizning xush-noxush harakatlari, aytgan-deganlarimiz farzandlarimiz ko'z o'ngida, qulog'i ostida kechadi. Er-xotin o'rtasidagi muomala, so'zlashuv odobimiz, kiyinishimiz, yurish-turishimiz, odoromad buromadimiz, rost-yolg'onimiz — bularning hammasi bolalar shuuriga marjondek tizilib boradi. Ota-ona farzandiga iymon-e'tiqoddan nasihat qila turib, o'zi shu aytganlariga amal qilmasa, bola qalbi jarohatlanadi, ko'ngli cho'kadi, vujudini ketmas bir o'kinch chulg'aydi.

Bundan uch ming yil avval dunyoga kelgan "Kalila va Dimna" asarida uch ming yil avvalgi bir xavotir keltiriladi: "Yoshlar tarbiyasi aynib ketdi, bu ketishda dunyo hademay buzilib ketadi...". Buyuk Gerodot Misr ehromlaridagi yozuvlarni o'qib, ularni kelajak avlodlarga

Bola tarbiyasi — bugun ekib, peshindan keyin hosili o'rib olinadigan mavsumiy ish emas. Bolani tarbiyalayotib, o'zimiz ham tarbiya olamiz. Bizning xush-noxush harakatlari, aytgan-deganlarimiz farzandlarimiz ko'z o'ngida, qulog'i ostida kechadi.

xonadon sobhilar — chol bilan kamping ikki qiz, bir o'g'li bor. Hammalari allaqachon uyli-joyli bo'lib ketgan, shaharning turli mavzularida yashaydi. Ammo ertalab, tushlikda, kechqurun kelib, keksalardan xabar oladi. Bittasi issiq non, qaymoq olib kelsa, boshqasi boshqa bir yegulik ko'tarib keladi. Yaxshanba kunlari hammalari yig'ilib, hovlida taom pishiradi. Qizlar kir yuvadi, hovlini supurib-sidiradi. Ota-ona "Hoy, bunday qilmanglar, ishlaringdan qolib ketasizlar", demaydi..."

Biz shunday yashaymiz. Ishqilib, har kimmiki o'ziga buyursin-da. Shunday deyman-u, goh-goh u yer-bu yerdagi bizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan yangi "qadriyatlar" bo'y ko'rsatayotgani, biz ularga asta-sekin ko'nikib, bir-birimizga qarab,

yo'lakda konserva bankalari, qimmat konfet, sigareta, kolbasa, qora-qizil uvildirliq va yana boshqa — oddiy odamlarning shu choqqacha ko'zi ham tushmagan yegulik, ichimliklarning idishlari.

Kim shunday qilishi mumkin? O'zimcha jurnalist tekshiruvchi o'tkazdim. Olti qavatli uyning har qavatida ikkitadan xonadon bor. Birinchi qavat — yo'q, bu qo'shnilar bunday qilmaydi. Ikkinchi qavatda o'zimiz turamiz, Uchinchi qavatdagilar o'ta ma'rifatli.

Asta yuqoriga ko'tarila boshladim. O'zbekistonga tartib o'rnatish uchun kelgan desantchi prokuror yashaydigan xonadon eshigi oldida to'xtadim. "Ha, shu oilaning ishi. Domimizda "Marlboro" sigaretasini shu "tartibchi"dan boshqa hech kim chekmaydi. Qimmat konfetlar, kolbasalar shundaylarning dasturxonida bor, xolos".

Xulosam aniqligiga ishonch hosil qilgach, sochilib yotgan chiqindini paketga joylab, eshik qo'ng'irog'ini bosdim. Qo'limdagi paketni menga yovsira qarab turgan xizmatkor ayolning qo'lga berib, orqamga qaytdim.

Ertasiga ertalab desantchi prokuror bilan hovlida uchrashib qoldik. U menga o'dag'aylab, po'pisa qildi, "Mening uyim senga musurxonami?" dedi.

Men harbiychasiga "Xuddi shunday, janob prokuror", deb battar javavasini qo'zg'adim.



Do'ppi boshdan olib o'ylashga arziri tadqiqot. Bu bozor dunyoda hech bir sotarman o'z molini yomon demaganidek, hech kim o'z pusti panohidan bo'lgan bolasini o'zi yomonliqqa chiqarmaydi. Bolalar hovlida, ko'chada, maktabda jiqqamush bo'lshsa, janjal sababini bilsak ham bolamizni haq deb, hammaning oldida uning yonini olamiz, Tarbiyachilar "Bolangizning xulqi yomon bo'lib ketyapti", desa, jahl bilan "Bolamda ayb yo'q, falonchi-falonchilarning bolasiga qo'shildi-yu, ayndi", deymiz. Shu paytda o'sha falonchi-falonchi ota-onalar ham qo'llarini biz tomonga bigiz qilib, aybni o'z bolasidan soqit qilib turgan bo'ladi.

Vaqt charxpalagi to'xtovsiz aylanadi. Bolalar ulg'ayadi. Dunyoqarashi, xarakteri shakllanadi. O'shanda "Tuppa-tuzuk baland nega yomon yo'lga kirib ketdi", deb boshimizni qashlab qolmaslik uchun bugun harakat qilishimiz kerak.

Marlboro

To'qsoninchi yillarning boshida Toshkentning qo'q markazida joylashgan Darxon mavzesida turardik. Olti qavatli "moskovcha" uylar. Qo'shnilar ham shunga yarasha — vazir, vazir o'rinbosari, prokuror, sudya, yuqori lavozimli harbiy, endi-endi oyoqqa turayotgan



yangi o'zbek boylari. Qo'shinchilik bilinar-bilmas darajada. Ko'pchilik o'zi bilan o'zi ovora. Kirdi-chiqdi yo'q hisobi. Bahorda hovlini tozalash uchun hashar uyushtirgan edik, ellikdan ortiq xonadondan atigi uch-to'rt kishi pastga tushdi. Bir-ikkita xonadon egalari mardikor yollashibdi.

Ha mayli, shunisiga ham shukr, deb hovlini tozaladik, suv yo'llarini ochdik, daraxtlar tagini yumshatdik. Ko'rgan kishining bahridii ochiladigan hovli bo'ldi. Ammo... Oradan uch-to'rt kun o'tib-o'tmay, hovli yana ifloslana boshladi. Kimdir balkondan otganmi,

men bir chekkada turgan odam bo'lsam...", deydi-qo'yadi.

O'ylab ko'rsam, o'rtadagi odamga yaxshi ekan. Bunday odamning umri huzur-halovatda o'tadi. Hech kim unga: "Hoy, sen nega imillayapsan, tezroq qimirlasang-chi", deb tanbeh bermaydi. To'da ichida bor-yo'qligi goh bilinadi, goh bilinmaydi. G'azab otiga mingan boshliqning ko'zi unga birinchi bo'lib tushmaydi. Oldinga chiqib ketib, peshonasiga tosh, kesak tegmaydi ham.

O'rtadagi odam kam xato qiladi. Chunki u hamisha orqa-oldiga qarab turadi. O'zicha bir ish qilmaydi, bir nima demaydi. Zarur bo'lsa, o'zini eslatib qo'yish uchun avval oldindagilarga yaqinlashadi, keyin ortda qolayotganlarga "Tezroq bo'lmaysizlarmi", deya sigir qarash qiladi. Bunday odamlar dimog'dor bo'ladi ham. "O'rtada, mana, biz turibmiz, tashvish qilmang", deyishadi. E'tiroz bildirib ko'ring-chi...

Kitob

Bir ota tahririyatga qizini yetaklab olib keldi. "Kenjayotimiz, shoir, har kuni she'r-lar yozadi. Uchta kitob chiqardi. To'rtinchisi ham tayyor. Mukofotga qo'ymoqchimiz. She'r-larini chiqarishga yordam bering, qanaqa xizmat bo'lsa, tayyormiz", deya menga viqor bilan qaradi.

Bir dasta she'rmi ikki-uch bor o'qib, arang bittasini tanladim. "Mayli, ovora bo'lib kelibsizlar, tahrir qilib, tuzatib, shu bittasini chiqarishga harakat qilamiz", dedim.

Bu gap ota uchun tomnan tarasha tushgandek bo'ldi.

— Qizim, xafa bo'lma, gazitga o'tmasa, kitobga o'tadi. Yur, ketdik, — dedi.

Kitob sho'rlikka rahmim kelib ketdi.

So'z

So'zning qudrati to'g'risida juda ko'p yozilgan. Jaloliddin Rumiy bunday degan: "So'z haqiqatning soyasi va parchasidir... Madomiki, soya o'ziga tartib ekan, u holda haqiqat yanada yaxshiroq jazb etadi..."

Bu ulug' mutafakkirning fikricha, odam va olamni idrok etishda so'zga ehtiyoj borligi uchun ham so'z bor. So'zsiz idrok etuvchiga so'zning ehtiyoji yo'q. Idrok eta bilgan(lar) uchun ko'klamning, yerning hammasi so'zdir. Hafif bir sanni eshita oluvchiga baqirib-chaqirishning hojati yo'q. Hazrat Navoiyda o'qiyimiz: "Ey Navoiy, so'zda ma'ni yo'qturur, ma'niyda so'z, Durri ma'ni istar o'lsang, aylagil guftor bas" (Ya'ni: so'zda ma'noni to'la aks ettirib bo'lmas, ma'noga so'z imkoniyatlarini sig'irish mumkin. Ma'nolar durini istasang, so'zlashni bas qil).

Tog'ay Murod ancha yillar avval adabiyotga shunchaki havas bilan kirib kelayotgan, amaldorlikka ishtiyoiq baland ijodkorlarga qarata bunday degan edi: "Sizda, avvalo, so'z bo'lsin, ularni marjonida tering, narvon yasang va shu narvon orqali yuqoriga ko'tariling..."

Anketa

Yillar davomida sano-sanoqiz tavsifnomalarni o'qiganman, ammo ularning birortasida bo'lsin "Zehni baland, fahm-farosatli, halol-pokiza, birov bir nima deyishini kutib o'tirmaydi, bajarishi lozim bo'lgan ishni o'zi fahmlaydi", degan ta'rifni uchratmaganman.

Hayotda har birimiz sano-sanoqiz savollarga javob qaytarimiz. Biror munosabat bilan navbatdagi anketani to'ldirayotib, qayerda va qachon tug'ilganimiz, millatimiz, jinsimiz, ma'lumotimiz, ota-onamizning kimligi, olamdan o'rgan bo'lsa, qayerga dafn etilgani, qaysi xorijiy davlatlarda bo'lganimiz to'g'risidagi savollarga aniqlik va lo'nda javob qaytarimiz. Bunga shu qadar o'rganib ketganmizki, yoshimiz bir joyga borib qolgan bo'lsa ham jinsimizni so'zlashsa ajablanmaymiz.

Vaqt o'tib boradi, ammo anketa savollari o'zgaraydi. Bu muhim hujjatda "Xarakteringizni qanday baholaysiz, odoblimiz, xulqingiz yaxshimi, jahlingiz chiqqanida o'zingizni boshqara olasizmi, ayb sizda bo'lsa, uzr so'zlashga tobingiz qalga, kitob o'qiyisizmi, oxirgi marta qachon teatrta borganisiz?" kabi savollar hech qachon uchramaydi.

Anketada uchramas uchramasin, ammo ko'ngilda bo'lishi kerak bunday savollar.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2574.
41218 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bashorat Yunusova
Musahhah: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy